



ULOQ-KO‘PKARI ETNOSPORT TURI SIFATIDA

Toshtemirov Akram Mengli o‘g‘li,
E-mail: akramtoshtemirov@gmail.com ,
Tel. +998881399400

Annotatsiya: Ushbu maqolada uloq-ko‘pkarining O‘zbekistonda etnosport turi sifatida e’tirof etilishi, uning o‘ziga xosligi, an‘ana va marosimlari, yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni hamda ahamiyati keng yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada uloq-ko‘pkarining o‘zbeklardan tashqari boshqa millat va xalqlarda ham mavjud ekanligi, uloq-ko‘pkari so‘zining kelib chiqish tarixi, o‘yinning boshqacha nomlanishi haqidagi muhim ma‘lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: milliy xalq o‘yinlari, etnosport, uloq-ko‘pkari, ot sporti, qamchi, chavandoz, xalq sayllari, halol, zot, bakovul.

Uloq-ko‘pkari Markaziy Osiyodagi deyarli barcha xalqlar, xususan o‘zbek xalqining qadimiy va ommaviy tomoshabop milliy xalq o‘yinlaridan biri. Ko‘pkari asosan to‘ylarda, bayram va sayllarda katta kenglikda o‘tkaziladi.

Uloq-ko‘pkari atamasining kelib chiqish tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu borada juda ko‘plab qarashlar, farazlar hamda ilmiy xulosalar bor .

Tilshunos olim Jo‘ra Xudoyberdiyevning “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasining 2010 yil 22-sonida e‘lon qilingan maqolasida “Mahmud Koshg‘ariy «ulag‘» so‘zini «bekning buyrug‘i bilan yuruvchi pochta xalqining ma‘lum bekatlardan ayirib o‘tkazib miniladigan oti» tarzida izohlangan. Bu izohdan o‘sha davrda rasmiy pochta xizmati yo‘lga qo‘yilganligini, «ulag‘» so‘zi shunchaki miniladigan otni emas, faqat «pochta xizmati uchun miniladigan ot» ma‘nosini bildirishini bilib olamiz. «Devon»da «ulag‘» so‘zining «echki», «uloq» ma‘nolari esa qayd etilmagan. Asarda «uloq» so‘zi «og‘laq», ya‘ni «o‘g‘laq» shaklida berilib, bu so‘z echkining bolasi ekanligi aniq ko‘rsatilgan: «og‘laq — uloq, echki bolasi; og‘laq jiliksiz, og‘lan biliciz — echki bolasida ilik yo‘q, yosh bolada aql yo‘q». Oradan ming yil o‘tgan bo‘lishiga qaramay, bugungi o‘zbek shevalarida, xususan, Qashqadaryo shevalarida uloqni «o‘g‘loq», «o‘g‘log‘» shaklida talaffuz qilish hozirgacha saqlanib qolgan. «Devon»da «echki» so‘zi «echku», «kechi», uning erkagi «taka», olti oylik echki bolasi «chebish», deb berilgan. Bu so‘zlar ham hozirgi o‘zbek tilida qisman fonetik o‘zgarishlar bilan keng qo‘llanmoqda” degan fikrlarni bildirib o‘tgan. Bizning fikrimizcha ushbu ilmiy xulosa ancha haqiqatga yaqinroqdir.



Uloq-ko'pkari o'yinlari O'zbekistondan tashqari Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston, Afg'oniston, Pokiston, Mo'g'uliston va qisman Ozarbayjonda ham uyushtirilib kelinadi. Ular orasida eng ommalashgan ko'pkari (uloq) o'yini biz o'zbeklarda "Ko'pkari", "Ko'kbo'ri", "Uloq" deyilsa, qirg'izlarda "Ko'kpari", forsiy tilda so'zlashuvchi qavmlarda "Bo'zkashi" (tortishish o'yini), rus xalqlarida esa "Kozlodranie" deb yuritiladi.¹

Ko'pkari O'zbekistonda ko'pincha xalq sayllari, Navro'z va shu kabi milliy bayramlar hamda to'ylar (xatna, nikoh) munosabati bilan tantananing oxirgi kuni uyushtiriladi.² Shu tufayli o'tkazilish kuni bir necha kun oldin uzoq qishloq va yurtlarga xabar yuboriladi. Yoki radio va televedeniya orqali e'lon qilinadi. Chavandozlar ko'pkari o'tkaziladigan qishloq tomon bir necha kun avval yo'lga tushadilar. Ular kelib otlariga dam berib yotishadi. To'yga kelgan chavandoz va mehmonlarni joy bilan ta'minlash to'yxat tarqatgan chaqiruvchi zimmasida bo'ladi. Unga "qo'shxona tashlash" ham deb aytiladi. Mehmon va otlarning oziq-ovqati to'y egasi hisobidan bo'ladi.³ Mehmon chavandozlar qo'nim topgan xonadonlarda tunning yarmigacha ko'pkari haqidagi ajoyib-g'aroyib afsonalar, latifalar, hazil-mutoyibalar avjiga chiqadi, musobaqada ishlatiladigan qoidalar va yangi atamalar haqida qizg'in bahslar bo'ladi. Olamdan o'tgan marhum ustoz chavandozlar esga olinadi, kuchli va tajribali chavandozlarning tantiligi, kamtarligi maqtaladi, yaxshi otlarning hislatlariga tasannolar aytiladi. Mahalliy baxshilar ijrosida dostonlardan parchalar va termalar tinglanadi. Baxshilar ijrosidagi terma va dostonlarning asosiy mavzusi ham asosan qahramonlik, vatanparvarlik, ot va u bilan bog'liq afsonalar haqida bo'lgan va bu o'z navbatida chavandozlarning ruhiyati ko'tarilishiga, shijoatiga yana shijoat qo'shilishiga xizmat qilgan⁴. Shu bilan birgalikda bu kabi suhbatlar maydonda har doim kamtarin, vazmin va asosiysi halol bo'lishga undaydi. Shu kuni otlarga ham alohida e'tibor beriladi. Mo'ljaldan ortiq suv yoki yem berilmaydi, yomon ko'zlardan asraladi. Hech qachon qamchi bilan otning boshiga urilmaydi. Har bir chavandozning maxsus tayyorlangan kiyimlari: boshni qamchi

¹ The Importance Of Physical Education In Times Of Pandemics F.I.Qo'ziyeva, J.R.Abitova International Journal of Progressive Sciences and Technologies 25 (2), 119-122.

² Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati Boysun tumani Chilonzor qishlog'i.18-may 2023-yil.

³ Dala yozuvlari, Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Tarqapchig'ay qishlog'i. 15-iyun 2023-yil

⁴ Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Laylagon qishlog'i. 24-may 2023-yil (shuningdek, bu bo'yicha O'zbekiston xalq baxshisi Abdunazar Poyonovdan ham fikr olindi).



yoki boshqa xavfli tasodifiy zarbalardan saqlaydigan telpagi, ustida po'stini, shimi, oyog'ida etigi, qo'lida qamchisi bo'ladi. To'yning so'nggi kuni xalqqa osh berilgandan so'ng chavandozlar ko'pkari o'tkaziladigan maydon tomon yo'l oladilar. Tomoshabinlar hammadan oldin bu yerga yetib kelib, o'zlariga qulay tepaliklardan joy olishadi va maydondagi o'z chavandozlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, uloq uchun kurashda g'alabaga undaydilar.⁵

Musobaqa boshlanishidan oldin bakovulboshi hammaga qarata; "g'irromlik qilmaysan, tag'in egarga bog'lab yoki o'g'rincha qayish(ip) o'tkazib uloqni qo'lga kiritaman deb o'tirma! Halol ayirsang, zotini ayamayman! Zotiga yuz ming so'm pul va bitta qo'chqor qo'yildi" deb e'lon qiladi. To'y egasi ko'pkari bo'ladigan kuni avval chavandozlar o'rtasiga so'yilgan taka (buqa) yoki sarka-uloq tashlaydi. Zot (borg'i) e'lon qilingandan so'ng uloq uchun ustida uymalashib yotgan chavandozlar orasidan, otlar tuyog'i tagidan bosilib yotgan uloqni olib chavandozlarni ortda qoldirib, ayirib, ketsa shu payt bakovul "halol", deb qichqiradi. Chavandozlar to' dasidan uloqni olib chiqib ketish har kimga ham nasib etavermaydi. Talato'pda ot ustidan egilib, uloqni shahd bilan bir hamlada ko'tarib olish, boshqalar har qancha chiranib tortganda ham ularga bermay otga o'ng'arish, ustalik bilan uzangiga bekitib, taqimiga bosgan holda davradan ajratib olish uchun chavandoz butun borlig'i bilan harakat qiladiki, bu uzoq yillik tajriba, mahorat va hunardan darak beradi.⁶ G'alabaga ishtiyoqi baland bo'lgan mohir chavandozlar og'ir vaziyatlarda ham chayirlik qilib, chidam va shahd bilan o'zining xilma-xil usullarini, hunar va ilmlarini qo'llaydilar. Uloqni ayirgan chavandoz ikkinchi bakovul yoniga borib, e'lon qilingan sovrinni oladi. Agar chavandozlarni ortda qoldirib o'zib ketolmasa, "uloq joyida qoldi" deb e'lon qiladi. Bakovul 5-6 marta, hatto undan xam ko'proq marta borg'i (zot) tashlaydi. Bir marta tashlagan zotini chavandozlar ayira olmasa, bakovul borliq ustiga: "Chavandozlar! Eshitmadim demanglar, ustiga yana bir sarkasi bor deb e'lon qiladi. "Uloq ayirish" sharti bir necha bor takrorlanadi. Shundan so'ng xam uloq ayirilmasa, yana bakovul zotni kattartira boradi. Ko'pkariga kirmay yoshlarga navbat berib, otini sovutib yurgan katta chavandozlar ham kelib qo'shiladi.

Agar zot (borg'i) tez-tez ayriladigan, tashlangan uloq ezilib, yengil bo'lib qolgan bo'lsa, uni yangilaydi. Endi ho'kiz (2-3 yashar tana kallasi, to'rt oyog'i

⁵ Тураев М.М., Баймурадов Р.С., Файзиев Я.З. Интерактивные методы физического воспитания в вузах/ / Педагогическое образование и наука. № 3, 2020.С. 132-135.

⁶ Dala yozuvlari , Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog'i, 7-mart 2023-yil



tizzasidan kesilgan. Uni 1-2 kun suvga ivitib qo'yadi) tashlanadi⁷. Bu uloqda shovqin-suron boshlanib ketadi. Bu galgi uloqni har qaysi chavandoz xam to'da ichidan olib chiqib ayiravermaydi. Chunki uning og'irligi 80-100, xatto 120 kilogacha bo'lishi mumkin. To'dadan (uloqni olish uchun uyushmalashib yotgan joy) olib chiqib ketganda, ikkinchi bir chavandoz ham uloqning bir butidan yo boshqa joyidan ushlab, tortishib ketadi. Ehtimol keyingi qo'shilgan chavandoz kuchlilik qilib uloqni olib ketishi mumkin. Bu chavandoz xam birga otliqlardan qochib, qutilib ketishi kerak. Tezda uni tushirib qo'ysa, bakavul "uloq joyida qoldi" deb e'lon qiladi. Balkim ikkala chavandoz kelishib biri "qo'yib yubor bo'lamiz" deydi. Rozi bo'lsa aytganidek zot ikkiga bo'linadi. Bo'lmasa uloq ayirilmay qoladi. "Qaroli" (ho'kiz, sigir) deb aytiluvchi sharti ko'pkarining eng og'ir sinovi hisoblanadi.⁸

Ko'pkarida sovringa echki, novvos, ho'kiz, tuya, ot, televizor, ayrim hollarda yengil avtomashina ham qo'yiladi. To'y egasining imkoniyatiga qarab ko'pkari uchun buyumlar, qo'y-echkilar, ot-tuyalar, oltin tangalar ham ajratiladi.⁹ Ba'zi xonadonlar to'ylarida esa kalish, maxsi, etik, gazlama, kigiz, gilam, polos va shunga o'xshash mollar qo'yiladi.¹⁰ Bu ajratilgan sovrinlarni bakovullar hammaga e'lon qiladi.

Milliy sport turlari va xalq o'yinlari o'zbek xalqi madaniy merosining ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va vatanga muhabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro-e'tiborini yuksaltirishga intilish tuyg'ularini tarbiyalashning asosiy poydevori hisoblanadi. Bugungi kunda joylardagi urf-odat tusiga kirgan milliy xalq o'yinlari hamda milliy qadriyatlarni qayta tiklash, aholining keng qatlamini ayniqsa, yoshlarni milliy sport turlari va xalq o'yinlariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, yosh avlod chavandozlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan ot sporti, xususan, uloq-ko'pkari musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish hamda milliy

⁷ Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati Sherobod tumani Xomkon qishlog'i, 7-mart 2023-yil

⁸ Surxondaryo-etnografik makon: ocherki,esse\ S.N.Tursunov, T.R.Pardaev, N.Maxmadiyoro'va. - Toshkent: Akademnashr, 2012. 158-160 betlar

⁹ Dala yozuvlari, Surxondaryo viloyati Boysun tumani Panjob qishlog'i. 10-may 2023-yil.

¹⁰ Субъективно-динамические особенности ценностного отношения студентов к специальным тестам «Алпомиш» и «Барчиной»
И.Т.Хамраев, Х.А.Батиров, Б.К.Ходжаев Инноватика физической культуры и спорта : материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, г. Москва 1/ С. 426- 427



ot sportining xalqaro dovrug'ini oshirishga qaratilgan zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish masalasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Xususan, yurtimizda mazkur yo'nalish bo'yicha to'liq huquqiy asos mavjud. 2008-yilda —Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro Konvensiya (2003-yil 17-oktyabr, Parij) ratifikasiya qilindi, amaldagi qonunchilikka tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Mazkur masalada davlat dasturi tasdiqlanib, amaliyotga tatbiq etildi. Unda, milliy sport turlari va xalq o'yinlarini o'rganish, tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish masalasi ham asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

2021 yil 6 oktabr kuni O'zbekiston Milliy etnosport assotsiatsiyasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tkazilgan edi. "Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ–259-son, 25.05.2022 y.) qabul qilindi. Qaror bilan Etnosport turlarini 2025 yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi hamda uni 2022–2023 yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Shunga ko'ra, 2023-yil 1-martdan har yili etnosport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkaziladi. 2023-yil 1-yanvargacha har bir hududda ot sporti turlariga tegishli anjomlar savdosini yo'lga qo'yish maqsadida do'konlar tashkil etiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib aytadigan bo'lsak, milliylikimizni aks ettiradigan xalq o'yinlari va milliy sport turlarini rivojlantirish hamda aholi orasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish lozim. Yoshlar ongida vatanparvarlik, mardlik, hallolik, kamtarlik kabi hislatlarni uyg'otish va rivojlantirishda alohida o'rin tutadigan etnosport turlari yanada ommalashuvi uchun birinchidan, uloq-ko'pkari va shu kabi etnosport turlari bo'yicha musobaqalarni tez-tez o'tkazib turish, ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari orqali turkum ko'rsatuv, eshittirish hamda lavhalar sonini ko'paytirish, uchinchidan, etnosport turlari va ularning tartib-qoidalarini o'zida aks ettirgan mobil ilovalar va o'yinlar turlarini yaratish, to'rtinchidan, maktab, kollej va akademik litseylar hamda oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya, tarix, tarbiya kabi fanlar o'quv dasturlariga etnosport turlariga oid mavzularni kiritish bugungi kunda nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Bu yuqorida sanab o'tilgan ishlarni amalga oshiradigan bo'lsak, nafaqat yoshlar, balki butun aholi orasida milliy xalq o'yinlari haqidagi tasavvur ancha o'zgarishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. Surxondaryo-etnografik makon: ocherki,esse\ S.N.Tursunov, T.R.Pardaev, N.Mahmadiyorova. - Toshkent: Akademnashr, 2012., 232 b.
2. Тураев М.М., Баймурадов Р.С., Файзиев Я.З. Интерактивные методы физического воспитания в вузах// Педагогическое образование и наука. № 3, 2020.
3. The Importance Of Physical Education In Times Of Pandemics F.I.Qo'ziyeva, J.R.Abitova International Journal of Progressive Sciences and Technologies 25 (2)
4. Субъективно-динамические особенности ценностного отношения студенток к специальным тестам «Алпомиш» и «Барчиной» И.Т.Хамраев, Х.А.Батиров, Б.К.Ходжаев Инноватика физической культуры и спорта : материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, г. Москва (1)